

Yo'riqnoma

1. Nomzodlarga qo'yiladigan talablar

1.1. Test sinovlarida ishtirok etishga mutaxassislar (HHXK dispetcherlari, uchuvchilar, oliy o'quv yurtlari talabalari), shuningdek oldindan ro'yxatdan o'tgan boshqa shaxslarga ruxsat etiladi.

1.2. Nomzod shaxsni tasdiqlovchi hujjatni (pasport, ID karta) o'zi bilan olib kelishi shartdir.

1.3. Nomzod belgilangan vaqtga yetib kelishi kerak. Test sinoviga 15 daqiqadan ortiq vaqtga kechikkan nomzodning testlash jarayonida qatnashishga yo'l qo'yilmaydi.

1.4. Test sinovi paytida quyidagilar taqiqlanadi:

- Mobil telefonlar va boshqa elektron qurilmalardan foydalanish;
- Qo'shimcha adabiyotlar yoki oldindan tayyorlab olingan javoblardan yashirincha foydalanish;
- Intizom va test sinovining o'tkazish tartibini buzish;
- Nomzod uchun test sinovi jarayonida nomzod tomonidan testlash bo'yicha yozgan yozuvlarini o'zi bilan olib ketishiga ruxsat berilmaydi;
- Shaxsiy buyumlar bilan sumkalar yoki portfellarni olib kirish;
- Test sinovi o'tkazilayotgan auditoriyadan chiqib ketish.

1.5. Test sinov boshlanishidan avval barcha qurilmalar mas'ul xodimga topshiriladi, ushbu xodim ularni maxsus jihozlangan va himoyalangan alohida kichik katakcha joyiga saqlash uchun joylashtiradi. Nomzodning o'zi bilan faqat unga berilgan kod va shaxsni tasdiqlovchi hujjat (ruxsatnoma/pasport) bo'lishi kerak.

1.6. Nomzod uchun test sinovi tugagandan so'ng savollar berish va testning sifati to'g'risida suhbatdosh-imtihon oluvchining fikrini surishtirish taqiqlanadi.

1.7. Test sinovining audio-video yozuvlari boshlanganidan keyin test varianti (sinov tizimi) mavzularini muhokama qilish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday suhbatlarga yo'l qo'yilmaydi. Nomzod tomonidan test qoidalari bila turib ongli ravishda buzilgan holatlarda suhbatdosh-imtihonchi test sinovi jarayonini to'xtatadi.

AELPT test sinovi formati

Test sinovning umumiy davomiyligi: taxminan 25-30 daqiqa.

O‘tkazish formati: Individual testlash: 1 nomzod – 1 imtihon oluvchi.

1-QISM

Kirish (3–5 daqiqa)

Suhbatdosh-imtihon oluvchi umumiy va kasbiy sohaga yo‘naltirilgan mavzularda qisqa suhbat o‘tkazadi.

Bo‘lim maqsadi:

- Kommunikativ aloqani o‘rnatish;
- Psixologik zo‘riqish sababli yuzaga keladigan ruhiy tanglikni kamaytirish;
- Nomzodning tashqi ta’sirlarsiz yuzaga keladigan ravon nutqini baholash.

2-QISM

Audio tinglash (9–10 daqiqa)

Bo‘lim **uch qismdan** iborat:

- Aviatsiya hodisasi to‘g‘risida yozib olingan reportaj (monologik format);
- Haqiqiy yoki modellashirilgan radio almashinuvining ikkita audio yozuvlari (dialogik format).

Har bir audio yozuv ikki martagacha qaytarib eshittirilishi mumkin.

Tinglash paytida nomzodga yozuvlarni yozishga ruxsat beriladi.

Audio tinglashdan so‘ng, nomzod asosiy mazmun va fikrlarni qanday darajada tushunishini namoyon qilishi kerak. Javobda hodisaning muhim elementlari mavjud bo‘lmagan holatlarda imtihon oluvchi tomonidan tushunchaning to‘liqligini tekshirish uchun qo‘shimcha aniqlashtiruvchi savollar berilishi mumkin.

Bo‘lim maqsadi:

- Idrokni eshitish qobiliyati bilan baholash, kasbiy kontekstni tushunish va ma’lumotni qaytarib takrorlash qobiliyati;
- Radiotelefon aloqasini idrok etish, nostandart vaziyatlarni tushunishni va olingan ma’lumotlarni tizimli ravishda takrorlash qobiliyatini baholash.

3-QISM

Tasvir tavsifi (3 daqiqagacha)

Ushbu bo‘limda nomzodga ekranda aviatsiya mavzusi (shtatli yoki shtatdan tashqari favqulodda vaziyat) bilan bog‘liq bo‘lgan tasvir beriladi. Nomzod uchun tasvir bilan oldindan tanishib olish uchun 15 soniya vaqt ajratiladi. Bu vaqtdan keyin nomzod tasvirni izohlashni boshlaydi.

Nomzodning vazifasi taqdim etilgan vaziyatni uch daqiqagacha vaqtda tasvirlab berishdan iborat. Nomzod quyidagilarni bajarishi kerak:

- Tasvirning asosiy elementlarini aniqlash;
- Sodir bo‘layotgan harakatlarni tasvirlab berish;
- Mumkin bo‘lgan sabablar va oqibatlarni taxmin qilish;
- Aviatsion lug‘atga ega ekanligini namoyish etish.

Nomzod vaziyat mohoyatini to‘liq ochmagan holatlarda imtihon oluvchi nomzodga javob berishni davom ettirish va og‘zaki nutq mahoratini ko‘rsatish imkoniyatini namoyon qilish uchun tasvir bilan bog‘liq qo‘shimcha savollar berishi mumkin.

Vazifaning maqsadi:

- Fikrlarni mantiqiy va izchil ifoda etish qobiliyatini baholash;
- Lug‘at boyligini baholash;
- Grammatik aniqlik darajasini baholash;
- Nutq ravonligini baholash.

4-QISM

Vaziyatli rolli o‘yin (5–6 daqiqa)

Ushbu bo‘limda nomzod aviatsiya faoliyati va radiotelefon aloqasining real sharoitlariga imkon qadar yaqinlashtirilib modellashtirilgan kasbiy vaziyatda faol ishtirok etadi. Nomzodga muayyan bir rol beriladi — uchuvchi yoki dispatcher.

Suhbatdosh-imtihon oluvchi radio almashinuvining ikkinchi tomonining rolini o‘ynaydi.

Vazifa nomzod va imtihonchi o‘rtasida vizual aloqasiz amalga oshiriladi. Bunda haqiqiy radioaloqaga imkon qadar yaqin sharoitlar yaratilib, aloqa faqat ovozli almashinuv orqali amalga oshiriladi.

Taklif etilayotgan ssenariy doirasida nomzod quyidagilarni bajarishi lozim:

- Berilgan vaziyatga muvofiq muloqot qilish;
- Zaruriyatga asosan standart aviatsiya frazeologiyasi va umumiy og‘zaki ingliz tilidan foydalanish;
- Xabarlarning ravshanligi, qisqaligi va tizimli tuzilishini namoyish etish;
- Axborotni tasdiqlash, aniqlashtirish va zarur to‘g‘rilash kiritishni bilish;
- Vaziyatdagi o‘zgarishlar sharoitiga mos keladigan lozim darajada javob berish.

Ssenariy standart ish lahzalari va nomzoddan tashqi ta’sirlarsiz yuzaga keladigan ravon nutqini va aloqani samarali boshqarishni talab qiluvchi kutilmagan yoki nostandart vaziyatlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Vazifaning maqsadi:

Bo‘lim quyidagilarni baholashga qaratilgan:

- Real vaqtda kasbiy muloqot dialogini o‘tkazish qobiliyati;
- Nostandart vaziyatlarda standart frazeologiyadan umumiy ingliz tiliga o‘tish qobiliyati;
- Interfaol ko‘nikmalar va aloqani boshqarish;
- Vizual qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lmagan sharoitda nutq qobiliyatining barqarorligi;
- Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarni oldini olish va bartaraf etish qobiliyati.

Bunda nomzodning texnik yoki tartib-taomil bilimlarini tekshirish emas, balki til bilimi bilishning darajasi baholanadi.

5-QISM

Aviatsiya mavzusida suhbat (5–6 daqiqa)

Ushbu bo‘limda suhbatdosh-imtihon oluvchi aviatsion kasbiy faoliyat bilan bog‘liq mavzularda nomzod bilan suhbat o‘tkazadi.

Suhbat davomida nomzod quyidagilarni bajarishi kerak:

- Berilgan savollarga batafsil javob berish;
- Fikrni bildirish va asoslash;
- Kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish;
- Hodisa sabablari va mumkin bo‘lgan oqibatlar haqida so‘zlab berish;
- Nutq tafakkurining mantiqligi, izchilligi va moslashuvchanligini namoyish etish.

Imtihon oluvchi muloqotni davom ettirish va kommunikativ salohiyatni to‘liq baholashni ta‘minlash maqsadida nomzodning javoblariga qarab aniqlashtiruvchi va qo‘shimcha savollar berishi mumkin.

Vazifaning maqsadi

Bo‘lim quyidagilarni baholashga qaratilgan:

- Kasbiy sohada og‘zaki nutqni bilish darajasi;
- Fikrni bildirish va asoslash qobiliyati;
- Til tafakkurining moslashuvchanligi;
- Lug‘at boyligini baholash;
- Grammatik aniqlik va nutq ravonligi.

Ushbu bo‘lim nomzodning texnik bilimlari yoki tartib-taomil bo‘yicha tayyorgarligini tekshirish uchun mo‘ljallanmagan.

3. Baholash

- 3.1. Baholash olti balli ICAO shkalasi bo'yicha (1 dan 5 darajagacha) amalga oshiriladi.
- 3.2. Ingliz tilini bilish darajasi oltita mezon bo'yicha aniqlanadi (Pronunciation, Structure, Vocabulary, Fluency, Comprehension, Interactions).
- 3.3. Natijalar nomzodga ma'lumotlarni qayta ishlash tugagandan so'ng e'lon qilinadi.
- 3.4. Rasmiy xulosa test sinovi o'tkazilgandan so'ng 10 kalendar kun ichida beriladi.

4. Nomzodning huquqlari va majburiyatlari

4.1. Nomzod quyidagi huquqlarga egadir:

- Test sinovlari o'tkazish tartibi to'g'risida ma'lumot olish;
- Test sinovlari boshlanishidan oldin ma'muriyatga savollar bilan murojaat qilish;
- Nomzod suhbatdosh-imtihon oluvchidan savollarni qayta iboralab ifodalashni so'rashga haqlidir;
- Test sinov paytida sog'lig'i yomonlashganda nomzod bu haqda suhbatdosh-imtihon oluvchini darhol xabardor qilishi shart;
- Natija olinganidan keyin uch kalendar kun ichida yozma ravishda shikoyat qilish mumkin (3-ilova-apellyatsiya shakli);
- Test sinovi boshlanishidan kamida 5 kalendar kun oldin sinovdan o'tishni boshqa sanaga o'tkazish.

4.2. Nomzod quyidagi majburiyatlarga egadir:

- Ushbu Yo'riqnomaning talablariga rioya qilish;
- Korporativ odob-axloq qoidalariga rioya qilish;
- Suhbatdosh-imtihon oluvchining ko'rsatmalariga amal qilish;
- O'zini to'g'ri hulq bilan tutish va intizomga rioya qilish.

5. Test sinovlaridan qayta o'tish shartlari

5.1. Nomzodga qayta test sinovidan o'tkazilish uchun rasmiy xulosa chiqarilgandan keyin 10 kalendar kundan kechiktirmay ruxsat beriladi.

5.2. Nomzod tomonidan test sinovining qoidalari buzilgan holatlar yuz berganda testlash natijalari bekor qilinib, takroriy testlashdan o'tish O'MM boshlig'i tomonidan 30 kalendar kundan kechiktirmay tayinlanadi.

5.3. Apellyatsiya belgilangan tartibda O'MM boshlig'i tayinlangan komissiya tomonidan ko'rib chiqilib, keyinchalik nomzod rasmiy xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risida xabardor qilinadi.

Izoh: imtihon chiptalari mazmuni (nazorat savollari) bo'yicha apellyatsiyalar ko'rib chiqilmaydi.

6. Fors-major

6.1. Fors-major holatlari (texnik nosozliklar, aloqa uzilishi, favqulodda vaziyatlar, tabiiy ofatlar, shuningdek test sinovini o'tkazishga xalaqit beradigan boshqa holatlar) yuzaga kelgan taqdirda, suhbatdosh-imtihon oluvchi test sinovi jarayonini test sinovini o'tkazish jurnaliga tegishli qaydnoma yozuvini kiritgan holda testlashni kechiktirish yoki to'xtatib turish huquqiga ega.

6.2. Test sinovini qayta o'tkazish sanasi haqida nomzodga qo'shimcha ravishda xabar beriladi.

6.3. Belgilangan sabablarga asosan testlashni o'tkazish nomzodning urinishlarini bekor qilishga olib kelmaydi. Fors-major holatlari bilan bog'liq bo'lmagan barcha boshqa holatlar O'MM boshlig'i tomonidan ko'rib chiqiladi.

1-Ilova

Muhokama uchun mavzular ICAO doc 9835(Appendix B, II qism) hujjatida ko'rsatilgan hodisalar ro'yxati va mavzulariga oid sohalarga muvofiq tanlanadi.

Mavzu quyidagilarni qamrab olishi mumkin:

- Aviatsiya hodisalari;
- Havodagi to'qnashuv tahdidlari;
- Kechikishlar va navbatning o'zgarishi
- Nosozliklar bilan qo'nish;
- Ornitologik vaziyat;
- Portlovchi qurilmalar tahdidi;
- Yuk bilan bog'liq muammolar / xavfli yuklar;
- Bortdagi yong'in;
- Yer ustida yuz bergan hodisalar;
- Sog'liq bilan bogliq muammolar;
- Qo'nish jarayonida yuz bergan hodisalar;
- Ishlab chiqarish ziddiyatlari;
- Noqulay ob-havo sharoiti;
- Ikkinchi aylanaga o'tish;
- Notanish aerodrom;
- Uchuvchining mehnatga vaqtincha layoqatsizligi;
- Ma'muriy muammolar;
- Havo kemasining nosozligi;
- Havo kemasi yaqinlashishi;
- HHB tizimidagi muammolar;
- Yoqilg'i etishmasligi;
- Parvoz rejasini o'zgartirish;
- To'qnashuvlar;
- Yo'lovchilar bilan bog'liq muammolar/noqonuniy aralashuv;
- Radioaloqadagi tushunmovchiliklar;
- Xabarni uzatish uchun so'rov;
- Manziga yetib kelish aeroportidagi maxsus shartlar;
- Maxsus reyslar;
- Ruxsatsiz manevrlash;
- Murakkab ob-havo hodisalari;


- Aerodromdagi harakatlanish va parvoz maydonidagi ishlar;
- Aerodrom hududidagi sharoitlar;
- Aerodrom inshootlari va jihozlari;
- Yer usti xizmatlari;
- Tartib-taomillar va qoidalar;
- Texnik nosozliklar;
- Tibbiy holatlar;
- Xizmatlar bilan o‘zaro aloqadorliklar;
- Inson omilining ta’siri va boshqalar.

Muhokama uchuvchilar va havodagi harakatni boshqarish dispetcherlari faoliyatining haqiqiy shartlarini aks ettiruvchi amaliyot kontekstlariga asoslanadi.

2-Ilova (uchuvchilar uchun)

Role-play (4-qism AELPT) vazifasini bajarish uchun uchuvchilarga Toshkent aerodromi sxemalari va marshrut sxemalari taqdim etiladi.



Nomzod standart va favqulodda shtatdan tashqari vaziyatlarni modellashirish uchun taqdim etilgan axborotlardan foydalanishga tayyor bo'lishi kerak.



AIRCRAFT PARKING AND
GROUND MOVEMENT CHART - ICAO



TASHKENT DELIVERY	129.4
ATIS	126.8
TASHKENT GROUND	121.7
TASHKENT TOWER	120.4

TASHKENT/UZTT
ISLAM KARIMOV



TASHKENT DELIVERY	129.4
ATIS	126.8
TASHKENT GROUND	121.7
TASHKENT TOWER	120.4

TASHKENT DELIVERY	129.4
ATIS	126.8
TASHKENT GROUND	121.7
TASHKENT TOWER	120.4



INSTRUMENT APPROACH CHART - ICAO


AD ELEV
THR ELEV
TRANSITION LEVEL
TRANSITION ALTITUDE

ATTIS
TASHKENT APPROACH
TASHKENT TOWER

126.8
119.4
122.9
120.4

TASHKENT/UZTT
ISLAM KARIMOV

ILS or LOC RWY08R



MISSED APPROACH: Climb to 4000' via route TT112 - DAKZO - ERWET. Hold over ERWET or follow ATC instruction.

CAT OF ACFT		A	B	C	D
OCA (H)	CAT I	1569 (200)	1573 (204)	1581 (212)	1591 (222)
STRAIGHT-IN	LOC	1810' (450)			
CIRCLING		-	-	-	-

NOTE: STATE MINIMAS ARE INDICATED ON THE PAGE AD2.24-6.X.1

STANDARD ARRIVAL CHART
INSTRUMENT (STAR) - ICAO


AD ELEV
THR ELEV 08L/08R
TRANSITION LEVEL
TRANSITION ALTITUDE

1417'
1369'
FL 150
13000'

ATIS
TASHKENT APPROACH
TASHKENT TOWER
VOLMET

126.8
119.4
122.9
120.4
113.2

TASHKENT/UZTT
ISLAM KARIMOV
RNAV(GNSS) RWY08L/08R



25 NM from 113.2 TKT
DVOR-DME
① 9100 ② 10000 ③ 9200

SURVEILLANCE SERVICE
SHALL BE AVAILABLE

RNAV 1
approval required

① MHA 7000'

② IAS 230KT

VOR DME
113.2 TKT
N411516.1 E0691513.0

UZ(P)101
UNL
GND
H24

UZ(P)103
UNL
GND
H24

UZ(P)104
UNL
GND
H24

UZ(R)134
5000'
GND
H24

UZ(P)102
UNL
GND
H24

UZ(P)106
UNL
GND
H24

UZ(R)143
5000'
GND
H24

UZ(R)135
5000'
GND
H24

BEARINGS AND TRACKS ARE MAGNETIC
DISTANCES ARE IN NAUTICAL MILES
ALTITUDES ARE IN FEET

0 1 2 3 4 5 6 NM

DILRO 2W, LEPVO 2W, TISIB 2W.

